

## O'zbekistonda monitoring tizimiga ega bo'lgan smart-transformatorlar ustida ilmiy izlanishlar olib boriladi

Quyosh energiyasi xalqaro institutida transformator va elektr uskunalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan dunyodagi eng yirik Xitoy xalq Respublikasi "BAODING TIANWEI BAOBIAN ELECTRIC CO.,LTD" kompaniyasi delegatsiyasi bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuv davomida Kompaniyaning katta menedjeri janob Wen Hong boshchiligidagi delegatsiya Quyosh energiyasi xalqaro instituti faoliyati bilan tanishdi. Ushbu Kompaniya asosan smart-transformatorlarni va energiya samarador elektr asbob-uskunalarini, shuningdek, fotoelektrik tizimlar komponentlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lib, dunyoning 40 ortiq davlatlarida faoliyat olib boradi va yetakchi kompaniyalar bilan hamkorlik qiladi.

Uchrashuv so'nggida "BAODING TIANWEI BAOBIAN ELECTRIC CO., LTD" kompaniyasi Institutda quyosh stantsiyalari uchun monitoring tizimiga ega bo'lgan smart-transformatorlarni va energiya samarador elektr asbob-uskunalarini ishlab-chiqish/yaratish ustida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar bilan yaqindan tanishish va birgalikda ilmiy-texnik loyihalarni amalga oshirish bo'yicha ikki tomonlama shartnoma imzolashga kelishib oldi.

